

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

## PSIXOLOGIYADA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR RUHIYATINING O'RGANILISHI

Salimova Marjona Salomovna

Termiz Davlat universiteti Psixologiya mutaxassisligi magistranti

[marjonasalimova5@gmail.com](mailto:marjonasalimova5@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxs tushunchasi va uning psixologik xususiyatlari, ularning ruhiyatiga ta'sir qiluvchi omillar, imkoniyati cheklangan shaxslar psixologiyasini o'rganishning ilmiy asoslari, zamonaviy psixologiyada nogiron shaxslar muammosi, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiylashuvi va inklyuziv ta'lim, maktab va OTMlarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish holati, rivojlangan davlatlarda nogironlar psixologiyasini o'rganish tajribalari, imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ishlovchi psixologlar faoliyati va psixologik yordam ko'rsatish metodlari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

### Kalit so'zlar

imkoniyati cheklangan shaxslar, inklyuziya, ijtimoiylashuv, reabilitatsiya, .Piaje, L.S. Vygotskiy, E. Erikson, ruhiy izolyatsiya, dezadaptatsiya, depressiya, yolg'izlik hissi.

### Abstract

This article presents the concept of a person with disabilities and his psychological characteristics, factors affecting his psyche, scientific foundations of studying the psychology of people with disabilities, the problem of people with disabilities in modern psychology, socialization of people with disabilities and inclusive education in Uzbekistan, the development of inclusive education in schools and universities, the experience of studying the psychology of people with disabilities in developed countries. Methods of working with people with disabilities and providing psychological assistance.

### Keywords

people with disabilities, inclusion, socialization, rehabilitation, .Piaget, L.S. Vygotsky, E. Erikson, mental isolation, maladaptation, depression, feeling of loneliness.

Imkoniyati cheklangan shaxslar – bu harakat, eshitish, ko'rish, nutq, aqliy yoki ruhiy rivojlanishida tug'ma yoki orttirilgan muammolarga ega bo'lgan insonlardir. Ular jamiyatda to'laqonli ishtirok eta olishlari uchun maxsus sharoitlar va yondashuvlarga muhtoj. Psixologik jihatdan ular ko'pincha o'zlarini jamiyatdan ajralgan, keraksiz yoki o'ziga ishonchsiz his qiladilar. Ularning ruhiy xususiyatlari – o'zini past baholash, atrofdagilarning fikriga kuchli bog'liqlik, xavotir, depressiya, yolg'izlik hissi, ruhiy moslashuv darajasining pastligi kabilar bilan ajralib turadi. Imkoniyati cheklangan shaxslarning ruhiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida oila muhitining qo'llab-quvvatlovchi yoki inkor qiluvchi roli, maktab, kollej, OTM va ish joylaridagi muomala va munosabat, ijtimoiy stigma va stereotiplar, tibbiy va reabilitatsion xizmatlar sifati, yoshlikdagi psixologik travmalar, shuningdek, jismoniy nogironlik bilan birga keluvchi ruhiy izolyatsiya ularning psixologik holatini yomonlashtiradi. Psixologik yordamning yo'qligi ularda depressiv holatlarni chuqurlashtirishi mumkin.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

XX asrdan boshlab nogironlik psixologiyasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. J. Piaje, L.S. Vygotskiy, E. Erikson kabi olimlar inson rivojlanishi, cheklovlar va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni chuqur o‘rganib chiqdilar. Ayniqsa, Vygotskiy “proksimal rivojlanish zonasi” nazariyasida imkoniyati cheklangan bolalarga tashqi yordam orqali rivojlanish imkoniyati mavjudligini isbotlagan. Bugungi kunda bu yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar qilinmoqda, jumladan, rehabilitatsiya psixologiyasi, inklyuziv ta‘lim psixologiyasi, ijtimoiy integratsiya metodikasi kabilar shular jumlasidan. Zamonaviy psixologiyada nogironlik faqat klinik nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy-psixologik, madaniy va huquqiy jihatdan ham ko‘rib chiqiladi. Nogiron shaxslar jamiyatda teng huquqqa ega bo‘lishi kerakligi prinsipidan kelib chiqib, ularning o‘zini anglashi, o‘ziga bo‘lgan munosabati, va ijtimoiy muhitdagi pozitsiyasi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, “quvvatlantirish” yondashuvi orqali ularning mustaqilligini oshirish maqsad qilinmoqda.

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiylashuvi va inklyuziv ta‘lim holati bo‘yicha bir qator ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi nogironlar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha ko‘plab islohotlarni amalga oshirmoqda. 2021-yildan boshlab “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirgan. Shu asosda: Maxsus maktablar va internatlar tarmog‘i kengaymoqda, inklyuziv ta‘lim konsepsiyasi joriy etilmoqda, ijtimoiy moslashuv markazlari tashkil qilinmoqda, biroq hali ham maktab va oliy ta‘lim muassasalarida to‘liq qulayliklar yaratilmagan, psixologik xizmatlar sifati esa talabga to‘liq javob bermaydi.

Hozirgi kunda respublikamizdagi ayrim maktab va universitetlarda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish borasida muhim bosqichlar qo‘yilgan. Jumladan: Toshkentdagi ayrim OTMlarda imkoniyati cheklanganlar uchun liftlar, nishab yo‘laklar, maxsus xonalar mavjud, maktablarda defektolog, logoped va psixologlar soni ko‘paymoqda, biroq, bu hali ommaviy holga kelmagan. Hududiy farqlar sezilarli: viloyatlarda bu tizim ancha orqada. OTMlarda psixologlar faqatgina umumiy xizmat ko‘rsatadi, imkoniyati cheklangan talabalar uchun maxsus psixologik dasturlar hali keng joriy qilinmagan. Shu sababli ko‘pchilik bunday sharoitda o‘zini yolg‘iz va qo‘llab-quvvatlanmayotgandek his qiladi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarda nogironlar huquqlari va psixologik holatini yaxshilash davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. AQShda Individualized Education Program (IEP) orqali har bir imkoniyati cheklangan bola uchun alohida reja tuziladi. Maxsus psixologik yordam, rehabilitatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xizmatlari kuchli yo‘lga qo‘yilgan. Germaniyada rehabilitatsiya markazlari nogironlarga faqat tibbiy emas, balki psixologik yordam ham ko‘rsatadi. Jamiyatda ular “alohida” emas, balki “muqobil qobiliyatga ega” inson sifatida qaraladi. Finlyandiyada esa nogironlar uchun ta‘lim va ruhiy qo‘llab-quvvatlash davlat tomonidan to‘liq moliyalashtiriladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda har 7 kishidan biri imkoniyati cheklangan hisoblanadi. Bu 1 milliard odam. O‘zbekistonda esa 2023-yil holatiga ko‘ra, 750 mingdan ortiq nogironlar ro‘yxatga olingan. Ularning 40% i bolalar va yoshlar. Afsuski, ularning 25% dan kamrog‘i to‘liq ta‘lim olish imkoniyatiga ega. Psixologik yordam olish ko‘rsatkichi esa 10% dan ham kam.

Psixologlar imkoniyati cheklangan insonlar bilan ishlashda ruhiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini baholashni oshirish, jamiyat bilan muloqotni mustahkamlash, oilalar bilan maslahat olib borish, rehabilitatsion dasturlar tuzish, ular uchun maxsus malaka talab qilinadi: defektologik bilim, empatiya, sabr, moslashuvchanlik va motivatsion texnikalar. Ushbu jarayonda psixologlar bir qator metodlardan foydalanadilar. Bular: Kognitiv-behavioral terapiya (salbiy fikrlarni aniqlab, musbat nuqtai nazarga o‘zgartirish); Art-terapiya (rasm, musiqa, haykaltaroshlik orqali o‘zini ifodalash); Guruhiy mashg‘ulotlar (ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish); Motivatsion

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

suhbatlar (o‘z hayotini nazorat qilishga o‘rgatish); O‘zbekistonda bu metodlar hali keng tarqalmagan, ammo Toshkent va yirik shaharlarda ayrim markazlar faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib aytganda imkoniyati cheklangan shaxslar psixologiyasini o‘rganish – bu jamiyatni odil, mehribon va teng huquqli qilish sari yo‘ldir. Ular bilan ishlashda individual yondashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosatidagi islohotlar va psixologik xizmatlarning rivojlanishi muhim o‘rin tutadi. Bu borada OTM va maktablarda maxsus psixologik markazlar tashkil etish, inklyuziv ta‘limni har bir hududga joriy etish, psixologlar uchun maxsus trening va kurslar tashkil qilish, chet el tajribasini lokal sharoitga moslashtirib tatbiq etish, statistik monitoringni kuchaytirish kabi jihatlarga alohida e‘tibor qaratish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.X. Xaitov “Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “O‘zkitobsavdonashriyoti” 2020. 71-72 betlar.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T. 2007 yil.
3. L.R. Mo‘minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova., “Maxsus psixologiya” o‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” Toshkent– 2013 yil. 3-bet.
4. Sh. Nurmuxamedova “Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta‘minlashning ilmiy-metodik asoslari” (Monografiya) Toshkent –2014 yil
5. L. Maxsudova. M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. (uslubiy qo‘llanma) Namangan. 2003.
6. M.S. Salimova (2021 yil) “Imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiylashuvi”. O‘zbekiston Milliy Universiteti yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot ilmiy-amaliy konferensiya. 2(1) 131-134 betlar.
7. N.A. Tursunqulov “Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish amaliyoti” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Guliston–2020 yil. 21-22 betlar.